

## PSIXOLOG XONASINI TASHKIL ETILISHIDA QULAY IMKONIYATLAR YOXUD XONANING BESH BURCHAKLI GEOMETRIK SHAKLI

*Xorazm viloyati Xiva tumani 12- sonli umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

*Masharipova Umida Masharipovna*

*Xorazm viloyati Xiva tumanidagi 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi  
psixologi Xudayquliyeva Yulduz Otaboyevna*

**Annotatsiya:** Vaqtning o'tishi sayin borliq ham o'zgarishlar bilan boyib bormoqda. Bunday o'zgarishlar nafaqat borliq balki insoniyat tamadduniga katta ta'sir ko'rsatdi. Insonlar o'z hayotini yillar mobaynida turli hayotiy jarayonlar va kashfiyotlar bilan osonlashtirish, turli xil qiyinchiliklar va muamolarni bartaraf etish choralari muntazam takomillashtirib kelinmoqda. Psixolog xonasiga qo'yilgan talablarga innovatsion yondashib, yangicha imkoniyatlardan foydalanish va uni isloh etish bugungi o'zgarishlar va yangi evrilishlarga muvofiqdir.

**Kalit so'zlar:** O'zgarish, rivojlanish, besh burchakli xona, onlayn suxbat, psixologik xizmat, yo'riqnoma etibor.

Bunday o'zgarishlar insonlar shart-sharoitlarini yaxshilashda turli xil kasb va hunarlarning paydo bo'lishi bilan ham bog'liqdir. Har bir kasb-hunar, san'at va mehnatning rivojlanishda hozirgi kunning o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zgarishlar deyarli barcha sohada, kasbu hunarda mavjud. Shuningdek, psixologiya fani ham birmuncha o'zgarishlar bilan rivojlangan bo'lsa, yangi nazariya, g'oya va fikrlar orqali u takomillashib kelmoqda. Balki bundan buyog'iga ham fanning jadal sur'atda o'sishiga shubha yo'q. Bunga oddiy isbot- psixologiya hatto kichik detallarga ham katta e'tibor qaratishi. <sup>1</sup>Shuning uchun bu fan 300 dan ortiq tarmoqlanib, u turli-tuman sohalarda o'z aksini topdi. Fanning o'zgarishlari va rivojlanishi haqida gap ketar ekan, bunda biz uchun sir bo'lgan yoki bizni qiziqtirgan savollar ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bizni qiziqtirgan savollardan biri bu psixolog xonasini qanday tashkillash kerak? Bilamizki maktab, bohcha, kollej va boshqa ta'lim maskanlarida, undan tashqari turli tashkilotlarda psixolog xonasi tashkil etiladi. Psixolog xonasini tashkil etilishida nafaqat xona jihozlari balki xonaning joylashgan o'rni va uning geometrik shakliga ham e'tibor berilsa bu maqsadga juda yaqin bo'ladi. Geometrik shakli deganda asosan xonaning to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shakliga ega bo'lishini tushunamiz. To'g'ri shunday, ta'lim maskanlari yoki boshqa tashkilotlardagi umumiy binoning xona tuzilishiga mos ravishda psixolog xonasi ham geometrik shakli jihatidan uncha farq qilmagan holda kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak bo'ladi. Shakli

<sup>1</sup> 300 dan ortiq tur ziyotalimuz.com

jihatidan odatiy bo'lgan bunday xonalardan tashqari noodatiy tarzda yana bir shakl mavjud. Bu xonaning besh burchakligidir.

Noto'g'ri fikr, tushunarsiz holatni yuzaga keltiruvchi tasavvurni uyg'otishi tabiiy. Shuning uchun ham bu noodatiy xonaning shakli. Psixolog xonasining besh burchakli bo'lishi bir qancha imkoniyatlarga yo'l ochib beradi.

Besh burchakli ushbu psixolog xonasiga kirgan inson o'zini o'zga olamga o'tganday his qiladi. Muammosi bor insonlar ham huddi shunday xonaga kirgach muammolarni unutib ko'rgan narsalarini tahlil qila boshlaydi bu esa mijozning fikrini jamlab olishiga ko'maklashadi. O'z o'tmish voqealariga nazar solishda unga hech bir noxush hislar xalal bermaydi. Xonaning besh burchakligi insonlarga yana bir yo'l borligi haqida ishora qiladi. Bu shaklning qulaylik taraflarini birma-bir sanab o'tilsa, ko'p jixatdan foydali ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Misol uchun, xonaning bir oz kengroq bo'lishi, bazi predmetlarni devor tarafga qo'yilishida ularning soni bittaga ko'payib qolgan jixozlarni ham joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Ba'zan shaxslararo jamoviy uslubda psixologik xizmat, turli treninglar o'tqazishda ham yumaloq stolda ko'plab o'quvchi yoki boshqa turli insonlarni xona sig'imiga moslash juda qo'l keladi.

Joylashuvi, xonaning geometirik shakli noodatiy holatga undagan bo'lsa, Joylashuv jihatdan ham bu yana bir bor o'zgarishlarga duch keladi. Ya'ni xonaning joylashuvi o'zgaradi. Buning sababi o'zingizga ayon. Chunki besh burchakli xonani hech bir tashkilot binosiga joylashtirib bo'lmaydi. Agarda joylashtirishning imkoniyati bo'lganida ham, bu bir talay muammoni keltirib chiqarar edi.

Ushbu noodatiy tarzda qurilgan besh burchakli xonani joylashtirish uchun munosib o'rin bu alohidalashtirish, ya'ni yakka usulidan foydalanib, binoning yon tarafidan alohida poydevor bilan qilish lozim. Bunda psixolog xonasi asosiy binoning orqa yoki yon tomoniga qurilishi, asosan atrof tabiatga uyg'unlashgan holatda bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Xonaning devoriga yana bir kichik bino ya'ni kirish zalini birlashtirish bunga yana bir qulaylikni beradi. Uning yana bir qulayligi kirish zali uni xonaga bog'lash bilan birgalikda qo'shimcha ishchi xonasini hosil qiladi. Kirish zali xuddi qabul xonalar singari jixozlangan bo'lishi kerak.

Alohidalashgan ushbu psixolog xonasining deyarli barcha tashkilotlar uchun yana bir qulayligi bor. Bu qulaylik shundan iboratki, ko'plab tashkilotlarda asosan ta'lim maskanlarida, maktablarda, psixolog xonasini tashkil etish unga yetarlicha joy tanlashga doir muammodan xalos etadi.

**Psixolog xonasining shakllanishi.**<sup>2</sup> Respublika Tashxis Markazining 2010- yil 30- sentyabirdagi 32- sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan "Umumtalim muassasalarida psixologik xizmat xonasi faoliyatini tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma" asosida tashkil etilgan psixolog xonasini tashkillashda muxum o'rin tutgan vazifalari o'z talablari va

<sup>2</sup> telegra.ph

qoidalariga mos kelgan holda uni shakllantirish mumkin. Bunga ko'ra nizomda ko'rsatib o'tilgani kabi xonaning umumiy maydonini 36 kv m yoki undan ham kengroq qilish mumkin.

1. Tabiiyki xonaning besh burchakli bo'lishi yana bir turdagi joylashuvning ham o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunda xona derazalari joyi oldingi xolatdagiga nisbatdan o'zgaradi. Etibor berilsa to'rt burchakli xonada har bir burchakning o'ziga nisbatan proporsional holatdagi yana bir burchagi bo'lsa, besh burchakli xonadagi burchaklar esa yon devorlar bilan qarama-qarshi joylashishiga guvohi bo'lish mumkin. Shunday ekan qo'shimcha xonaga birlashgan yon devordan tabiiyki eshik ochiladi. Eshikning ro'parasi esa xonaning beshinchi burchagiga to'g'ri keladi. Bu burchakning ikki yoniga bittadan derazani joylashtirsa bo'ladi.

32-sonli buyruqqa muvofiq psixolog xonasini tashkil etishga qaratilgan yo'riqnomaga mos xonaning o'ng tomonida individual suhbatga mo'ljallangan psixologik burchak tashkil etib, turli jihozlar ikkita kresol, jurnal stoli, stol lampasi, tuvaklarda xonaki gullar joylashtiriladi. Kreslo suhbat vaqtida bemalol o'tirishga imkoniyat yaratadi.

Xonaning chap tomoni va bir oz oldiroqda kattaroq nisbatan yoki to'liq doira shaklidagi yumaloq stol va uning atrofiga yumshoq stullar qo'yiladi. Bunday katta joyni egallagan doira shaklidagi stol atrofida kichik jamoalar bilan suhbat va treninglarni tashkil etish mumkin. Yumaloq stolning yon tarafida esa kichik shakildagi yozuv doskasi qo'yilishi bilan psixologni mijozlarga malumot yetkazishini oson va aniqlashtiradi. Individual suhbat stolining atrofiga ham etibor qaratgan holda uning o'ng yon devor tarafiga o'rta hajimdagi ko'rgazmalar uchun parta qo'yiladi va uni ayrim ko'zga tashlanuvchi buyumlar, suinerlarni, qo'yish bilan tashkilanadi. Ushbu ko'rgazmalar ichida insonni tinchlantiruvchi tasviri ifodani hosil qiluvchi buyumlardan, kichik akvarum yoki sokin shivirlab huddi sharsharani eslatuvchi suvnerdan foydalanilsa ham bo'ladi.

**Online suhbat** Etibor foidaliy hamd kerakli fazilat. Qachonkiy bu fazilat qo'llanganida vujudga kelishi mumkin bo'lgan maqsadning va vazifaning boshlang'ich qismi xosil bo'ladi. Turli qiyinchiliklar, muammolarga etibor qaratilganida ham ular uchun tasavvur orqali yechim shakilana boshlaydi. Shu jumladan jamiyatning xar bir shaxsi uchun qaratilgan etibor insoniylikdan darak bo'lib, turli insonlar yosh-u qari, bemor, qarovga muxtoj, nogironligi bo'lgan insonlar ham o'z ehtiyojlarini shu etibor fazilati bilan bartaraf etishadi. Etibor qaratish mumkin bo'lgan insonlarning malum birlarinigina bilsak, yana shunday insonlar borki ular doimo hammaning etiboridan o'zlarini olib qochadilar, xatto etiborga muxtoj bo'lsalar ham. Bu insonlar psixologning yoniga deyarli xech biri bormaydi. Balki ularni odiy yechimi bo'lgan muammolar ham

<sup>3</sup> telegra.ph

bezovta qilar. Bu odii yechimga psixolog yo'naltiririshini bilsalarda ularni havotirga soluvchi qandaydir to'siqlar halal beradi. Bu to'siqni qanday olish mukun? Albatta ular yo'l topishga xarakat qiladilar. Bunda ko'pchilik uchun malum bo'gan yo'l mavjud bo'lib bu psixolog bilan "online suxbat" olib borishdir. Onlayn suxbat uchun biz asosan ichtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda psixolog bilan muloqotga kirishamiz. Ammo hammaning ham bunga iloji yoq. Misol uchun maktab o'quvchilarining ko'pchiligi bunday qila olmaydi. Bu bilan yana bir to'siq paydo bo'lmoqda. Ushbu to'siqdan halos bo'lish uchun yana bir bor psixolog xonasiga yuzlanamiz. Psixolog xonasining kirish zali bo'lgan qo'shimcha xonada bu to'siqqa javoban yechim shakilanadi. Asosiy xona shu qo'shimcha xonaga onlay tarzida konpiyuter bilan ham bog'langan bo'ladi. Bunda psixolog shaxsini malum qilishga ikkilangan mijozlar bilan ham aloqani o'rnata oladi. Kirish zalidagi yani qo'shimcha xonadagi konpiyuterga masul boluvchi insonni qo'yish ham maqsadga mofiq bo'ladi. Ushbu malumotlardan xulosa qilgan holda, insonlarning qatiyatli harakati va etibor bilan hayot osonlashaveradi. Zero <sup>4</sup>"ko'plab buyuk xaqiqatlar avvaliga masxaralangan" Bernard Shou.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Baratov SH.R. Psixologik xizmat. – Buxoro 2018.
2. Ziyotaliuz.com
3. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova Psixologik xizmat. Psixokorreksiya Toshkent – 2019
4. Hikmatlar.uz hikmatlar saxifasi.
5. telegra.ph Maktab psixolog xonasi. U qanday bo'lishi kerak?- 2019

---

<sup>4</sup> Hikmatlar.uz hikmatlar saxifasi.